



**2021- yilning yanvar-may oylari uchun
Jizzax viloyatida qurilish ishlari**



Joriy yilning yanvar-may oylarida Jizzax viloyatida jami **1116,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **103,9 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari
hajmining tarkibi**

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.06.2020- yil	01.06.2021- yil	
Jizzax viloyati	1931	2092	108,3
Jizzax sh.	842	903	107,2
tumanlar:			
Arnasoy	50	62	124,0
Baxmal	72	71	98,6
G'allaorol	117	132	112,8
Sh. Rashidov	345	362	104,9
Do'stlik	55	65	118,2
Zomin	121	123	101,7
Zarbdor	88	105	119,3
Zafarobod	23	27	117,4
Mirzacho'l	45	55	122,2
Paxtakor	72	78	108,3
Forish	60	67	111,7
Yangiobod	41	42	102,4


**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.06.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh. (43,2 %), Sh. Rashidov (17,3 %) va G'allaorol (6,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **31,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **77,0** % bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,2** % punktga kamaydi.

2021- yilning yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,0 %), Zafarobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 1,2 %), Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 1,0 %) ga to'g'ri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajarigan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **73,7 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichlariga nisbatan **2,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etgan holda **823,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,4 %** ni tashkil etdi yoki **261,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **104,9 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **26,4** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1090,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,4 %** va **97,6 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2021- yil yanvar-may oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **80,4 %** i yoki **1116,5** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

80,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **22,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi

2,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **634,0** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **70,6 %** ni tashkil etdi.

70,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **241,5** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **26,9 %** ni tashkil etdi.

26,9 %




**2021- yilning yanvar-may oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Jizzax viloyati	1116,5	103,9	898,0
Jizzax sh.	416,2	104,6	334,7
tumanlar:			
Arnasoy	16,0	105,8	12,8
Baxmal	34,8	107,1	28,0
G'allaorol	53,7	101,7	43,2
Sh. Rashidov	243,1	107,6	195,5
Do'stlik	34,1	100,6	27,4
Zomin	59,5	101,6	47,9
Zarbdor	39,9	98,5	32,1
Zafarobod	71,9	93,8	57,9
Mirzacho'l	19,2	95,6	15,5
Paxtakor	53,2	103,8	42,8
Forish	44,1	108,2	35,5
Yangiobod	30,8	106,5	24,7

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,4 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **23,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,4 %** punktga ko'payib, **70,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,7 %** punktga ko'payib, **28,6 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,1 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **22,4 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,5 %** (**21,1 %** punktga ko'payib) hamda norasmiy sektorning ulushi **1,4 %** (**1,3 %** punktga ko'paydi)ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **1,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-may oylariga nisbatan **14,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **98,6 %** (**14,7 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da



2020- yil
yanvar-may



2021- yil
yanvar-may



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-may oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	1116,5	909,4	125,9	81,2
Jizzax sh.	416,2	339,0	46,9	30,3
tumanlar:				
Arnasoy	16,0	13,0	1,8	1,2
Baxmal	34,8	28,4	3,9	2,5
G'allaorol	53,7	43,7	6,1	3,9
Sh. Rashidov	243,1	198,0	27,4	17,7
Do'stlik	34,1	27,8	3,8	2,5
Zomin	59,5	48,5	6,7	4,3
Zarbdor	39,9	32,5	4,5	2,9
Zafarobod	71,9	58,6	8,1	5,2
Mirzacho'l	19,2	15,6	2,2	1,4
Paxtakor	53,2	43,3	6,0	3,9
Forish	44,1	35,9	5,0	3,2
Yangiobod	30,8	25,1	3,5	2,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Joriy yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **37,3** % i yoki **339,0** mlrd. so'm), shuningdek, Sh. Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **21,8** % i yoki **198,0** mlrd. so'm), Zafarobod tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **6,4** % i yoki **58,6** mlrd so'm), yuqori ulushga

**Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73